Materiallar to’plami · Conference Proceedings

“Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarni ta’minlash: global chaqiriqlar va milliy yechimlar(Fuqarolarning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlari: transmilliy muammolar va ularni hal etish mexanizmlari)”

01 October – 14 November 2026

UDK 502

IQTISODIY, IJTIMOIY VA MADANIY HUQUQLARNI TA’MINLASH: GLOBAL CHAQIRIQLAR VA MILLIY YECHIMLAR

# EKOLOGIK BARQAROR RIVOJLANISHDA INSON HUQUQLARINING USTUVORLIGINI TA’MINLASHNING HUQUQIY MASALALARI

Muhriddin Baxtiyor o‘g‘li Nabiyev*

*Farg‘ona davlat universiteti, Huquqshunoslik fakulteti katta o‘qituvchisi*

✉ muhriddin2210.deka@gmail.com

**ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada ekologik barqaror rivojlanish sharoitida inson huquqlarining ustuvorligini ta’minlashning nazariy-huquqiy asoslari, xalqaro huquqiy standartlari va milliy qonunchilikdagi ifodasi tahlil qilinadi. Ekologik barqaror rivojlanish va inson huquqlarining o‘zaro bog‘liqligi, qulay atrof-muhitga bo‘lgan huquqning barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirishdagi o‘rni hamda davlatning ushbu sohadagi konstitutsiyaviy-huquqiy majburiyatlari tadqiq etiladi. Shuningdek, ekologik siyosatni shakllantirish va amalga oshirishda inson huquqlariga asoslangan yondashuvning ahamiyati, ekologik manfaatlar bilan iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish maqsadlari o‘rtasidagi mutanosiblikni ta’minlashning huquqiy mexanizmlari ko‘rib chiqiladi. Xalqaro huquqiy hujjatlar va O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligining qiyosiy-huquqiy tahlili asosida ekologik barqaror rivojlanishda inson huquqlarining ustuvorligini ta’minlash bilan bog‘liq ayrim huquqiy muammolar aniqlanib, milliy qonunchilikni takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari yuzasidan ilmiy-nazariy takliflar ilgari suriladi.

**Kalit so‘zlar**

ekologik barqaror rivojlanish, inson huquqlari, inson huquqlarining ustuvorligi, qulay atrof-muhitga bo‘lgan huquq, ekologik huquqlar, barqaror rivojlanish maqsadlari, ekologik siyosat, konstitutsiyaviy kafolatlar, ekologik qonunchilik, huquqiy mexanizmlar.

DOI: 10.5281/zenodo.23886040

**KIRISH.** Bugungi kunda iqlim o‘zgarishi, atrof-muhitning ifloslanishi, tabiiy resurslarning kamayishi va ekologik muvozanatning buzilishi barqaror rivojlanishni ta’minlash masalasiga yangicha huquqiy yondashuvlarni ishlab chiqishni taqozo etmoqda. Ushbu jarayonlar ekologik barqaror rivojlanishni nafaqat tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga qaratilgan faoliyat, balki insonning asosiy huquq va erkinliklarini amalga oshirishning muhim sharti sifatida ham tadqiq etish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Chunki atrof-muhitning holati insonning yashash, sog‘lig‘ini saqlash, munosib turmush kechirish hamda qulay atrof-muhitga ega bo‘lish huquqlarini ta’minlash bilan bevosita bog‘liqdir.

Barqaror rivojlanish konsepsiyasining xalqaro miqyosda shakllanishi iqtisodiy taraqqiyot, ijtimoiy farovonlik va atrof-muhit muhofazasi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni e’tirof etishga asoslangan. Xususan, 1992-yilgi Rio-de-Janeyro deklaratsiyasining 1-tamoyilida inson barqaror rivojlanish bilan bog‘liq masalalarning markazida turishi belgilangan. Ushbu yondashuv BMT Bosh Assambleyasining 2015-yil 25-sentabrdagi 70/1-sonli rezolyutsiyasi bilan qabul qilingan 2030-yilgacha bo‘lgan davrda Barqaror rivojlanish kun tartibida yanada rivojlantirildi. Shuningdek, BMT Bosh Assambleyasining 2022-yil 28-iyuldagi 76/300-sonli rezolyutsiyasida toza, sog‘lom va barqaror atrof-muhitga bo‘lgan huquqning inson huquqi sifatida e’tirof etilishi ekologik muhofaza va inson huquqlarining o‘zaro uzviyligini xalqaro darajada mustahkamlashga xizmat qildi.

O‘zbekiston Respublikasida ekologik barqaror rivojlanish va inson huquqlarining o‘zaro bog‘liqligi konstitutsiyaviy darajada mustahkamlangan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 49-moddasida har kimning qulay atrof-muhitga va uning holati to‘g‘risidagi ishonchli axborotga ega bo‘lish huquqi kafolatlangan. Shu bilan birga, davlatning barqaror rivojlanish prinsipiga muvofiq atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlash choralarini amalga oshirishi belgilangan. Ushbu konstitutsiyaviy normalar ekologik barqaror rivojlanishni inson huquqlarini ta’minlashga qaratilgan davlat majburiyatlari bilan uzviy bog‘liqlikda baholash imkonini beradi.

Biroq ekologik barqaror rivojlanish prinsipining konstitutsiyaviy jihatdan mustahkamlanishi uning barcha huquqiy mexanizmlari yetarli darajada shakllanganligini anglatmaydi. Xususan, ekologik qonunchilikda inson huquqlariga asoslangan yondashuvni rivojlantirish, iqtisodiy faoliyat va ekologik manfaatlar o‘rtasidagi huquqiy mutanosiblikni ta’minlash, ekologik qarorlar qabul qilishda inson huquqlariga ta’sirni baholash hamda jamoatchilik ishtirokining huquqiy kafolatlarini kuchaytirish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Shu nuqtayi nazardan, tadqiqotning maqsadi ekologik barqaror rivojlanishda inson huquqlarining ustuvorligini ta’minlashning nazariy-huquqiy asoslarini tahlil qilish, xalqaro huquqiy standartlar va O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligining o‘zaro bog‘liqligini aniqlash hamda ushbu sohadagi huquqiy mexanizmlarni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy takliflarni ishlab chiqishdan iborat.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ekologik barqaror rivojlanish va inson huquqlarining o‘zaro bog‘liqligiga oid ilmiy qarashlar xalqaro ekologiya huquqi, inson huquqlari nazariyasi hamda konstitutsiyaviy huquq doirasida shakllanib, bugungi kunda mustaqil fanlararo tadqiqot yo‘nalishi sifatida rivojlanib bormoqda. Ushbu masalaga oid ilmiy adabiyotlarda barqaror rivojlanishning ekologik mazmuni, insonning qulay atrof-muhitga bo‘lgan huquqi, davlatning ekologik majburiyatlari hamda ekologik qarorlar qabul qilishda inson manfaatlarini hisobga olish masalalari turli nazariy yondashuvlar asosida tadqiq etilgan.

Barqaror rivojlanish konsepsiyasining ilmiy asoslarini shakllantirishda 1987-yilda Atrof-muhit va rivojlanish bo‘yicha Butunjahon komissiyasi tomonidan tayyorlangan «Bizning umumiy kelajagimiz» (Our Common Future) ma’ruzasi muhim o‘rin tutadi. Ushbu hujjatda barqaror rivojlanish hozirgi avlod ehtiyojlarini kelajak avlodlarning o‘z ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlariga putur yetkazmagan holda ta’minlashga qaratilgan rivojlanish sifatida tavsiflangan. Bunday yondashuv ekologik muhofazani iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotdan ajratmagan holda ko‘rib chiqishga, avlodlararo adolatni rivojlanishning muhim mezoni sifatida e’tirof etishga nazariy asos yaratdi. Shu bilan birga, ushbu konsepsiyani inson huquqlari nuqtayi nazaridan talqin qilish ekologik barqaror rivojlanishning huquqiy mohiyatini yanada kengroq ochib berish imkonini beradi.

Ekologik huquqlarni konstitutsiyaviy darajada e’tirof etish masalalari D.R. Boydning ilmiy tadqiqotlarida atroflicha o‘rganilgan. Xususan, uning «The Environmental Rights Revolution: A Global Study of Constitutions, Human Rights, and the Environment» (2012) nomli monografiyasida turli davlatlar konstitutsiyalarida ekologik huquqlarning mustahkamlanishi, ularning yuridik kuchi, sud orqali himoya qilinishi hamda ekologik boshqaruvga ta’siri qiyosiy-huquqiy jihatdan tadqiq etilgan. Olimning yondashuvida qulay atrof-muhitga bo‘lgan huquqni konstitutsiyaviy darajada tan olish ekologik huquqlar himoyasini rivojlantirishning muhim omili sifatida qaraladi.

Biroq ushbu yondashuvni rivojlantirgan holda ta’kidlash lozimki, ekologik huquqning konstitutsiyaviy e’tirofi uning amalda samarali ta’minlanishini o‘z-o‘zidan kafolatlamaydi. Buning uchun huquqni amalga oshirish va himoya qilishga qaratilgan qonunchilik, institutsional hamda protsessual mexanizmlar ham zarur.

Inson huquqlari va atrof-muhit muhofazasining o‘zaro bog‘liqligini tadqiq etishda J.H. Knoxning ilmiy-huquqiy yondashuvi ham alohida ahamiyatga ega. Uning BMT Inson huquqlari kengashiga 2018-yilda taqdim etgan «Inson huquqlari va atrof-muhitga oid asosiy prinsiplar» (Framework Principles on Human Rights and the Environment) hujjatida davlatlarning ekologik masalalar bo‘yicha inson huquqlaridan kelib chiqadigan majburiyatlari tizimlashtirilgan. Jumladan, ekologik axborotdan foydalanish, jamoatchilik ishtiroki, samarali huquqiy himoya, ekologik xavflarning oldini olish va aholining zaif qatlamlarini himoya qilish kabi talablar inson huquqlariga asoslangan ekologik boshqaruvning muhim tarkibiy qismlari sifatida ko‘rsatilgan.

J.H. Knoxning yondashuvi ekologik huquqlarni faqat moddiy huquqlar doirasida ko‘rib chiqish yetarli emasligini, ularning samarali ta’minlanishi protsessual huquqiy kafolatlarning mavjudligiga ham bog‘liqligini ko‘rsatadi. Bizningcha, aynan shu jihat ekologik barqaror rivojlanishda inson huquqlarining ustuvorligini ta’minlashning muhim nazariy asoslaridan biri hisoblanadi. Chunki ekologik qarorlar qabul qilish jarayonida inson huquqlarining real himoyasi fuqarolarning axborot olish, muhokamalarda ishtirok etish va buzilgan huquqlarini tiklash imkoniyatlari bilan chambarchas bog‘liqdir.

Tadqiqot mavzusining xalqaro huquqiy rivojlanishida BMTning Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar bo‘yicha qo‘mitasi tomonidan ishlab chiqilgan 27-sonli umumiy sharh ham muhim ahamiyatga ega. Ushbu hujjatda ekologik muhitning holati insonning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlaridan foydalanish imkoniyatlariga ta’sir etuvchi asosiy omillardan biri sifatida baholanadi. Qo‘mitaning yondashuvi barqaror rivojlanishni faqat iqtisodiy o‘sish yoki ekologik muhofaza bilan cheklamasdan, uni inson huquqlarini ta’minlash bilan uyg‘unlashtirilgan kompleks jarayon sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Milliy ekologiya huquqi doktrinasida ham atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik xavfsizlikni ta’minlash va fuqarolarning ekologik huquqlarini himoya qilish masalalari muhim o‘rin egallaydi. Jumladan, J.T. Xolmo‘minov, A. Nigmatov, O.X. Narzullayev va boshqa huquqshunos olimlarning ekologiya huquqiga oid ilmiy va o‘quv adabiyotlari ushbu sohaning nazariy tushunchalari, prinsiplari va huquqiy institutlarini o‘rganish uchun muhim doktrinal asos bo‘lib xizmat qiladi. Ularning asarlarida yoritilgan ekologik-huquqiy tartibga solish masalalarini inson huquqlariga asoslangan barqaror rivojlanish konsepsiyasi bilan bog‘liq holda o‘rganish milliy ekologiya huquqining zamonaviy rivojlanish yo‘nalishlarini aniqlash imkonini beradi.

Tadqiqotning metodologik asosini dialektik, tizimli-huquqiy, formal-yuridik, qiyosiy-huquqiy hamda mantiqiy tahlil metodlari tashkil etadi.

## NATIJALAR VA MUHOKAMA.

Ekologik barqaror rivojlanish va inson huquqlarining o‘zaro bog‘liqligini nazariy-huquqiy jihatdan tadqiq etish natijalari barqaror rivojlanishning ekologik yo‘nalishi inson huquqlarini ta’minlash bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan kompleks huquqiy jarayon ekanligini ko‘rsatadi. Bunda atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ekologik xavfsizlikni ta’minlash nafaqat davlat ekologik siyosatining mustaqil maqsadlari, balki insonning yashash, sog‘lig‘ini saqlash, munosib turmush kechirish hamda qulay atrof-muhitga ega bo‘lish huquqlarini amalga oshirishning zarur shartlari sifatida namoyon bo‘ladi. Shu jihatdan, ekologik barqaror rivojlanishning samaradorligini faqat iqtisodiy o‘sish yoki tabiiy resurslardan foydalanish ko‘rsatkichlari bilan emas, balki ushbu jarayonda inson huquqlarining qay darajada ta’minlanayotganligi bilan ham baholash maqsadga muvofiqdir.

Tadqiqot davomida ekologik barqaror rivojlanish va inson huquqlari o‘rtasidagi munosabatning ikki asosiy jihati aniqlandi. Birinchidan, ekologik barqaror rivojlanish inson huquqlarini amalga oshirish uchun zarur ekologik shart-sharoitlarni yaratishga xizmat qiladi. Ikkinchidan, inson huquqlari ekologik siyosatni shakllantirish, tabiiy resurslardan foydalanish hamda iqtisodiy faoliyatni tartibga solishga oid qarorlarning mazmunini belgilovchi huquqiy mezonlardan biri hisoblanadi. Ushbu ikki jihatning o‘zaro uyg‘unligi ekologik barqaror rivojlanishning inson huquqlariga asoslangan huquqiy modelini shakllantirish imkonini beradi.

Fikrimizcha, ekologik barqaror rivojlanishda inson huquqlarining ustuvorligi tushunchasining huquqiy mazmunini aniqlashtirish muhim ilmiy ahamiyatga ega. Chunki ushbu tushuncha faqat insonning qulay atrof-muhitga bo‘lgan huquqini e’tirof etish bilan cheklanmay, davlatning ekologik siyosati va boshqaruv qarorlarida inson huquqlarini hisobga olish, ekologik xavflarning oldini olish, huquqlarning buzilishiga yo‘l qo‘ymaslik hamda samarali himoya mexanizmlarini shakllantirishni ham qamrab oladi. Shu asosda ekologik barqaror rivojlanishda inson huquqlarining ustuvorligi deganda ekologik siyosatni shakllantirish va amalga oshirish, tabiiy resurslardan foydalanish hamda iqtisodiy faoliyatni huquqiy tartibga solish jarayonida insonning ekologik va ular bilan uzviy bog‘liq boshqa huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ustuvor huquqiy mezon sifatida e’tirof etish, ularning buzilishining oldini olish va samarali himoyasini ta’minlashga qaratilgan kompleks huquqiy talabni tushunish taklif etiladi.

Ushbu ta’rif ekologik barqaror rivojlanishning inson huquqlariga yo‘naltirilgan mazmunini ifodalash bilan birga, ekologik muhofaza va iqtisodiy taraqqiyot o‘rtasidagi mutanosiblikni huquqiy jihatdan ta’minlash imkonini beradi. Bunda inson huquqlarining ustuvorligini ekologik manfaatlarning barcha boshqa manfaatlardan mutlaq ustunligi sifatida talqin qilish to‘g‘ri bo‘lmaydi. Aksincha, ushbu yondashuv iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik rivojlanish maqsadlarini insonning asosiy huquq va erkinliklariga nomutanosib zarar yetkazmagan holda amalga oshirishni nazarda tutadi.

Ekologik barqaror rivojlanishda inson huquqlarining ustuvorligini ta’minlashning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari tahlili ham muhim natijalarni yuzaga chiqardi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 49-moddasida har kimning qulay atrof-muhitga va uning holati to‘g‘risidagi ishonchli axborotga ega bo‘lish huquqi mustahkamlangan. Shu bilan birga, davlatning barqaror rivojlanish prinsipiga muvofiq atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlash bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishi belgilangan. Ushbu normalarning o‘zaro bog‘liqligi ekologik barqaror rivojlanishni davlatning ekologik funksiyasi bilan bir qatorda, inson huquqlarini ta’minlashga qaratilgan konstitutsiyaviy majburiyatlar tizimining tarkibiy qismi sifatida ham baholash imkonini beradi.

Konstitutsiyaviy normalarning mazmunidan kelib chiqib, davlatning ekologik sohadagi majburiyatlarini ikki yo‘nalishda tahlil qilish mumkin. Birinchi yo‘nalish insonning ekologik huquqlarini asossiz cheklash yoki ularga noqonuniy aralashishdan tiyilish bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchi yo‘nalish ekologik xavflarning oldini olish, atrof-muhit sifatini yaxshilash, ekologik axborotdan foydalanish imkoniyatini ta’minlash hamda buzilgan huquqlarni tiklashga qaratilgan faol choralarni amalga oshirishni nazarda tutadi. Ayniqsa, davlatning ijobiy majburiyatlari ekologik barqaror rivojlanishda inson huquqlarining ustuvorligini amaliy jihatdan ro‘yobga chiqarishda muhim ahamiyatga ega.

Shu bilan birga, insonning ekologik huquqlarini konstitutsiyaviy darajada e’tirof etish ularning amalda to‘liq ta’minlanishini o‘z-o‘zidan kafolatlamaydi. Buning uchun ekologik va ekologiyalashgan qonunchilikda mazkur huquqlarni amalga oshirishga qaratilgan aniq talablar, davlat organlarining vakolat va majburiyatlari, ekologik nazorat hamda huquqiy himoya mexanizmlari izchil rivojlantirilishi zarur. Ayniqsa, ekologik barqaror rivojlanish prinsipining qonunchilikdagi huquqiy mazmunini aniqlashtirish va uni davlat boshqaruvi jarayonlariga tatbiq etish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Bu borada O‘zbekiston Respublikasining «Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida»gi Qonuni ekologik muhofaza, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda insonning qulay atrof-muhitga bo‘lgan huquqini ta’minlashning muhim normativ asoslaridan biridir. Biroq ekologik barqaror rivojlanishning zamonaviy huquqiy mazmuni ushbu sohadagi tartibga solish mexanizmlarini inson huquqlariga asoslangan yondashuv bilan yanada uyg‘unlashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Xususan, ekologik siyosatni shakllantirish, davlat dasturlarini ishlab chiqish, xo‘jalik faoliyatini tartibga solish va tabiiy resurslardan foydalanishga oid qarorlar qabul qilishda inson huquqlari va qonuniy manfaatlarini hisobga olishning umumiy huquqiy talablarini aniqlashtirish maqsadga muvofiq.

Shundan kelib chiqib, «Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida»gi Qonunning tegishli normalarida ekologik barqaror rivojlanishda inson huquqlarining ustuvorligini ta’minlashga oid quyidagi mazmundagi qoidani mustahkamlash taklif etiladi: «Ekologik barqaror rivojlanishni ta’minlashga qaratilgan davlat siyosati, dasturlar va boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish hamda amalga oshirishda insonning qulay atrof-muhitga bo‘lgan huquqi va u bilan uzviy bog‘liq boshqa huquqlari hamda qonuniy manfaatlari hisobga olinishi, ekologik xavflarning oldini olish va ularning salbiy oqibatlarini kamaytirish choralari ko‘rilishi lozim». Ushbu qoida ekologik boshqaruvda inson manfaatlarini hisobga olishning umumiy huquqiy asosini mustahkamlashga xizmat qilishi mumkin.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, ekologik barqaror rivojlanishda inson huquqlarining ustuvorligini ta’minlashning yana bir muhim yo‘nalishi ekologik ahamiyatga ega qarorlarning inson huquqlariga ta’sirini baholash mexanizmlarini takomillashtirish bilan bog‘liq. Chunki sanoat, energetika, transport, qurilish va tabiiy resurslardan foydalanish sohalarida qabul qilinadigan qarorlar atrof-muhit holati bilan bir qatorda, aholining salomatligi, yashash sharoitlari va boshqa asosiy huquqlariga ham ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Bunday sharoitda ekologik ekspertiza va atrof-muhitga ta’sirni baholash mexanizmlarini inson huquqlariga oid mezonlar bilan

uyg‘unlashtirish zarur.

Fikrimizcha, ekologik ahamiyatga ega qarorlarni baholashda ularning inson salomatligiga, xavfsiz ichimlik suvidan foydalanish imkoniyatiga, yashash muhitining sifatiga va aholining ekologik xavfsizligiga ta’sirini aniqlashga alohida e’tibor qaratish lozim. Bunda ekologik xavflarning ijtimoiy jihatdan zaif qatlamlarga ta’sirini ham hisobga olish, ehtimoliy salbiy oqibatlarni kamaytirish bo‘yicha aniq majburiyatlarni belgilash maqsadga muvofiqdir. Ushbu yondashuv iqtisodiy rivojlanish loyihalarini amalga oshirishda inson huquqlarining himoyasini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Ekologik barqaror rivojlanishda inson huquqlarining ustuvorligini ta’minlash jamoatchilik ishtirokining huquqiy kafolatlari bilan ham chambarchas bog‘liq. Ekologik axborotdan foydalanish, ekologik ahamiyatga ega qarorlarni qabul qilishda ishtirok etish va buzilgan huquqlarni himoya qilish imkoniyatlari insonning ekologik huquqlarini ro‘yobga chiqarishning muhim protsessual shartlari hisoblanadi. Shu sababli ekologik boshqaruv jarayonlarida axborotning ochiqligi, jamoatchilik muhokamalarining samaradorligi hamda fuqarolarning murojaatlari va takliflarini ko‘rib chiqish tartiblarini takomillashtirishga alohida e’tibor qaratish zarur.

Bundan tashqari, ekologik barqaror rivojlanishning huquqiy mazmuni hozirgi avlod huquqlari bilan bir qatorda, kelajak avlodlar manfaatlarini ham hisobga olishni taqozo etadi. Avlodlararo adolat prinsipi tabiiy resurslardan foydalanish, iqlim o‘zgarishi oqibatlarini kamaytirish va biologik xilma-xillikni muhofaza qilishga oid uzoq muddatli qarorlarni qabul qilishda muhim ahamiyatga ega. Mazkur prinsip ekologik barqaror rivojlanishning qisqa muddatli iqtisodiy manfaatlar bilan cheklanmasdan, tabiiy muhitning uzoq muddatli barqarorligini ta’minlashga qaratilganligini ifodalaydi.

Olib borilgan tahlillar asosida ekologik barqaror rivojlanishda inson huquqlarining ustuvorligini ta’minlashning asosiy huquqiy yo‘nalishlari sifatida ekologik siyosat va qonunchilikda inson huquqlarini hisobga olish, davlatning ekologik majburiyatlarini samarali amalga oshirish, ekologik qarorlarning inson huquqlariga ta’sirini baholash hamda jamoatchilik ishtiroki va huquqiy himoya kafolatlarini kuchaytirishni ajratish mumkin.

Ushbu yo‘nalishlarning o‘zaro uyg‘unligi ekologik barqaror rivojlanishning inson huquqlariga asoslangan huquqiy modelini shakllantirishga xizmat qiladi. Bunday model ekologik muhofaza va iqtisodiy taraqqiyotni qarama-qarshi maqsadlar sifatida emas, balki insonning munosib hayot kechirishi uchun zarur bo‘lgan o‘zaro bog‘liq shartlar sifatida talqin etishga asoslanadi. Shu jihatdan, ekologik barqaror rivojlanishda inson huquqlarining ustuvorligini ta’minlashni milliy ekologik qonunchilikni takomillashtirish, davlatning ekologik majburiyatlarini aniqlashtirish hamda barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirish samaradorligini oshirishning muhim huquqiy yo‘nalishi sifatida baholash mumkin.

## XULOSA

Ekologik barqaror rivojlanishda inson huquqlarining ustuvorligini ta’minlash masalalarining nazariy-huquqiy tahlili barqaror rivojlanishning ekologik yo‘nalishi insonning asosiy huquq va erkinliklarini amalga oshirish bilan uzviy bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi. Atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ekologik xavfsizlikni ta’minlash nafaqat davlat ekologik siyosatining muhim vazifalari, balki insonning yashash, sog‘lig‘ini saqlash, munosib turmush kechirish hamda qulay atrof-muhitga ega bo‘lish huquqlarini ro‘yobga chiqarishning zarur shartlari hisoblanadi. Shu jihatdan, ekologik barqaror rivojlanishning huquqiy mazmuni inson huquqlarini ta’minlash bilan o‘zaro bog‘liqlikda baholanishi lozim.

Tadqiqot natijasida ekologik barqaror rivojlanishda inson huquqlarining ustuvorligini ta’minlash davlatning ekologik siyosatini shakllantirish, iqtisodiy faoliyatni tartibga solish va tabiiy resurslardan foydalanish jarayonlarida insonning ekologik hamda ular bilan bog‘liq boshqa huquqlari va qonuniy manfaatlarini ustuvor huquqiy mezon sifatida hisobga olishni nazarda tutuvchi kompleks yondashuv ekanligi asoslandi. Ushbu yondashuv ekologik muhofaza, iqtisodiy taraqqiyot va ijtimoiy farovonlik o‘rtasidagi mutanosiblikni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida qulay atrof-muhitga bo‘lgan huquq va barqaror rivojlanish prinsipining mustahkamlanganligi inson huquqlariga yo‘naltirilgan ekologik rivojlanishning muhim huquqiy asosini tashkil etadi. Biroq ushbu konstitutsiyaviy normalarning samarali amalga oshirilishi ekologik va

ekologiyalashgan qonunchilikda inson huquqlarining ustuvorligini ta’minlashga qaratilgan huquqiy mexanizmlarni yanada takomillashtirishni talab etadi.

Shu munosabat bilan «Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida»gi Qonunda ekologik barqaror rivojlanishni ta’minlashga qaratilgan davlat siyosati va boshqaruv qarorlarini qabul qilishda insonning ekologik huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini ustuvor mezon sifatida hisobga olishga oid huquqiy qoidani mustahkamlash taklif etiladi. Shuningdek, ekologik ahamiyatga ega qarorlarning inson huquqlariga ta’sirini baholash mexanizmlarini rivojlantirish, ekologik axborotdan foydalanish va jamoatchilik ishtirokining huquqiy kafolatlarini kuchaytirish hamda barqaror rivojlanish dasturlarining samaradorligini baholashda inson huquqlariga oid ko‘rsatkichlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Bundan tashqari, ekologik barqaror rivojlanishning huquqiy asoslarini takomillashtirishda avlodlararo adolat prinsipini hisobga olish, tabiiy resurslardan foydalanishda hozirgi va kelajak avlodlar manfaatlari o‘rtasidagi mutanosiblikni ta’minlash muhim ahamiyatga ega. Bu esa ekologik siyosat va qonunchilikning uzoq muddatli maqsadlarini inson huquqlarini himoya qilish vazifalari bilan uyg‘unlashtirish imkonini beradi.

Xulosa sifatida ta’kidlash joizki, ekologik barqaror rivojlanishda inson huquqlarining ustuvorligini ta’minlash ekologik muhofaza, iqtisodiy rivojlanish va ijtimoiy manfaatlarning huquqiy uyg‘unligini ta’minlovchi muhim yondashuv hisoblanadi. Uning milliy qonunchilikda izchil rivojlantirilishi davlatning ekologik majburiyatlarini samarali amalga oshirish, insonning ekologik huquqlarini himoya qilish va O‘zbekistonda ekologik barqaror rivojlanishning huquqiy asoslarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLARFOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2023-yil 30-apreldagi referendumda qabul qilingan yangi tahrir.
2. O‘zbekiston Respublikasining 1992-yil 9-dekabrdagi 754-XII-sonli «Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida»gi Qonuni.
3. World Commission on Environment and Development. Our Common Future. Oxford: Oxford University Press, 1987.
4. United Nations. Declaration of the United Nations Conference on the Human Environment. Stockholm, 1972.
5. United Nations. Rio Declaration on Environment and Development. Rio de Janeiro, 1992.
6. United Nations General Assembly. Transforming Our World: The 2030 Agenda for Sustainable Development. 25 September 2015.
7. United Nations General Assembly. The Human Right to a Clean, Healthy and Sustainable Environment. 28 July 2022.
8. United Nations Committee on Economic, Social and Cultural Rights. General Comment No. 27 (2025) on Economic, Social and Cultural Rights and the Environmental Dimension of Sustainable Development.
9. Boyd, D. R. The Environmental Rights Revolution: A Global Study of Constitutions, Human Rights, and the Environment. Vancouver: UBC Press, 2012.
10. Boyd, D. R. The Constitutional Right to a Healthy Environment. Environment: Science and Policy for Sustainable Development. 2012.
11. Knox, J. H. Report of the Special Rapporteur on the Issue of Human Rights Obligations Relating to the Enjoyment of a Safe, Clean, Healthy and Sustainable Environment.